

INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI: SPORT SANOATI MISOLIDA

Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich

Fargʻona davlat texnika universiteti “Iqtisodiyot” kafedrası katta oʻqituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sport sanoatida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash mezonlari, ularni amaliy qoʻllash mexanizmlari va natijaviylikka erishish omillari tahlil qilingan. Moliyaviy, texnologik va ijtimoiy mezonlar asosida innovatsion faoliyatning baholanishi raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Jadval va statistik maʼlumotlar asosida tahliliy yondashuvlar keltirilgan.*

Kalit soʻzlar: *Innovatsion faoliyat, sport sanoati, baholash mezonlari, samaradorlik, texnologiyalar, investitsiyalar.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida sport sanoati ham innovatsion yondashuvlarsiz rivojlana olmaydi. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish sportchilar, murabbiylar, tomoshabinlar hamda sport tashkilotlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning dolzarbligi – sport sohasida innovatsiyalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliy tahlil qilish bilan bogʻliq.

Innovatsion faoliyat — bu yangi mahsulot, xizmat yoki texnologiyalarni yaratish va amaliyotga tatbiq etish bilan bogʻliq boʻlgan harakatlar majmui boʻlib, uning samaradorligini baholash koʻp mezonli yondashuvni talab qiladi.

Eng avvalo iqtisodiy mezonlarga toʻxtalib oʻtsak. Eng asosiy mezonlar investitsiya rentabelligi (ROI), innovatsion mahsulotdan tushgan daromad ulushi hamda loyiha asosida ishga tushirilgan yangi ish oʻrinlari hisoblanadi. Shuningdek tashkiliy-meʼyoriy mezonlarga esa innovatsion faoliyatga ajratilgan byudjet ulushi, raqobatbardoshlik darajasi (mahalliy va xorijiy bozorda) va innovatsion mahsulotlar patentlanish darajasini olishimiz mumkin. Ijtimoiy-meʼyoriy mezonlar orqali foydalanuvchi qoniqishi, jamiyat salomatligiga ijobiy taʼsiri, sifatli sport xizmatlarining mavjudligi va ommaviyligini aniqlashimiz mumkin boʻladi.

Sport sohasida innovatsion faoliyat quyidagi asosiy yoʻnalishlarda amalga oshirilmoqda: sport anjomlari va kiyimlar dizaynidagi innovatsiyalar (aero-texnologiyalar, biomexanik materiallar), sport infratuzilmasining raqamlashtirilishi (aqlli stadionlar, monitoring tizimlari), trening texnologiyalarining ilgʻor shakllari (VR/AR, sensor monitoring, sunʼiy intellekt), Ijtimoiy tarmoqlar orqali sport marketingi (kontent bazasi, real vaqt statistika), elektron sport (e-sport) va gamifikatsiya elementlari kabilarda.

Shuningdek sport sanoatida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda eng ko'p uchraydigan mezonlardan tashqari quyidagi mezonlardan foydalangan holda sport sanoatida innovatsion faoliyat samaradorligini aniqlash yaxshi samara beradi: moliyaviy samaradorlik (daromad, foyda, investitsiya hajmi), texnologik yangilik darajasi, sportchilar natijalaridagi ijobiy o'zgarish, ijtimoiy ta'sir – aholining jismoniy faolligi, mahsulot va xizmatlar assortimentining kengayishi.

Sport sanoatida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda eng ko'p uchraydigan mezonlar 1-jadval.

Mezoni nomi	O'lchov birligi	Baholash shakli
Yangi mahsulot ulushi	%	Sotuvdagi ulushi orqali
Patentlar soni	Dona	Hisob-kitobli
Innovatsion byudjet ulushi	%	Umumiy xarajatga nisbatan
Trening sifati indeksi	Ball	So'rovnoma asosida
Foydalanuvchi qoniqish darajasi	%	Onlayn tahlil orqali

O'zbekistonda faoliyat yurituvchi sport anjomlari ishlab chiqaruvchisi "SportLine" MCHJ so'nggi 3 yilda quyidagi innovatsiyalarni joriy qildi: ichki shamollatishga ega yugurish krossovkalari, sensorli smart-trenajorlar, raqamli buyurtma platformasi.

Korxona o'zining innovatsion strategiyasini quyidagicha baholaydi:

- Yangi mahsulotlar ulushi: 42%
- Patentlar soni: 7 ta
- Foydalanuvchilar fikriga ko'ra qoniqish darajasi: 91%

Bu ko'rsatkichlar "SportLine" MCHJda innovatsion faoliyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Sport sanoatida innovatsion faoliyatni baholash mezonlari ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarni qamrab oladi. Mezonga asoslangan yondashuv orqali nafaqat korxona ichki samaradorligi, balki sohaning raqobatbardoshligi, ijtimoiy foydaliligi ham tahlil qilinadi. Yaxshi ishlab chiqilgan baholash tizimi sport tarmog'ining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish va innovatsion rivojlanishni rag'batlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash hozirgi zamonaviy iqtisodiy sharoitda har qanday soha, xususan sport sanoati uchun muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Sport sohasi nafaqat jismoniy faoliyat bilan bog'liq, balki katta iqtisodiy salohiyatga ega tarmoq bo'lib bormoqda. Shu bois, innovatsion yondashuvlarni baholash va ularning natijadorligini aniqlash bu tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion faoliyat deganda, odatda yangi mahsulotlar yaratish, xizmatlar sifatini oshirish, texnologiyalarni joriy qilish yoki mavjud tizimlarni takomillashtirish tushuniladi. Bunday faoliyatning samaradorligini aniqlashda yagona yondashuv mavjud emas. Har bir tarmoq, har bir korxona o'zining ichki imkoniyatlari va tashqi muhitiga qarab mezonlarni belgilaydi. Sport sanoatida esa bu mezonlar ko'proq

iqtisodiy foyda, ijtimoiy ta'sir, texnologik yutuq va foydalanuvchi tajribasi asosida baholanadi.

Sport sanoatida innovatsiyalar turlicha ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Bu texnologik sport anjomlari, raqamli platformalar, sun'iy intellekt asosidagi mashg'ulot tizimlari, interaktiv sport tahlil tizimlari va hatto gamifikatsiya elementlarini o'z ichiga oladi. Bu turdagi innovatsiyalar sportchilar, murabbiylar, muxlislar va butun jamiyat uchun yangicha imkoniyatlar yaratmoqda.

Sport sanoatida investitsiya va yangiliklar sonining ortishi av uning natijalari 2-jadval.

Mezon	Baholash birligi	2022 yil	2023 yil	O'sish foizi
Yalpi daromad	mlrd so'm	12.5	15.2	21.6%
Investitsiyalar	mlrd so'm	4.3	6.1	41.9%
Yangi mahsulotlar	Turi	5	9	80%
Sportchilar natijasi	%	8.2	9.1	10.9%
Ijtimoiy qamrov	ming kishi	18	24	33.3%

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sport sanoatida investitsiya va yangiliklar sonining ortishi ijtimoiy va sport natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda iqtisodiy mezonlar eng ko'p qo'llaniladigan yondashuvlardan biridir. Masalan, yangi mahsulotdan tushgan foyda, investitsiyalarning rentabelligi, innovatsion loyihalar orqali yaratilgan ish o'rirlari kabi indikatorlar bu sohada juda muhim sanaladi. Shu bilan birga, ijtimoiy omillar ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Foydalanuvchi qoniqishi, sport xizmatlarining ommaviylashuvi, sog'lom turmush tarzining kengayishi kabi jihatlar innovatsion faoliyatning ijtimoiy samaradorligini ifodalaydi.

Sport sanoatining ijtimoiy tuzilmalarga ta'siri katta. Har qanday yangi texnologiya, sport vositasi yoki metodika bevosita yoki bilvosita jamiyatga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham, bu jarayonni baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlar emas, balki axborot sifati, xizmatlar qulayligi, sportchilarning va jamoatchilikning fikr-mulohazalari ham hisobga olinishi zarur.

Jahon amaliyotida sport sohasi innovatsion faoliyatini baholashda tizimli indekslar ishlab chiqilgan. Bu indekslar yangi patentlar soni, mahsulotlar ichida innovatsion mahsulotlar ulushi, foydalanuvchi tajribasi asosida o'lchanadigan raqamli indikatorlar orqali belgilanadi. Raqamli transformatsiya sport sanoatida o'ziga xos yangi me'yorlarni shakllantirmoqda. Ayniqsa, pandemiya davridan so'ng sportning raqamli sektorga o'tishi sport xizmatlarining xususiylashtirilishi, onlayn

platformalarda rivojlanishi va individual moslashtirilgan xizmatlar sonining ortishiga olib keldi.

Sport anjomlari ishlab chiqaruvchilari uchun innovatsion faoliyatning samaradorligi bozor ulushini oshirish, brend qadriyatini mustahkamlash, global tendentsiyalarga moslashish orqali aniqlanadi. Mamlakatimizda ushbu jarayonlar bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Xususan, bir qator korxonalar o'z faoliyatida yangi texnologiyalar, aqlli materiallar va funksional dizaynlarni keng joriy qilmoqda. Bunday korxonalarda joriy qilingan innovatsion g'oyalar natijasida mahsulot sifati oshgan, talab yuqorilagan va ichki bozorni qamrab olish imkoniyatlari kengaygan.

Shuningdek, samaradorlik mezonlari orasida trening tizimlarining sifat ko'rsatkichlari, foydalanuvchi fikri asosida tahlil qilish, mahsulotlar patentlanish darajasi kabi mezonlar ham o'z ahamiyatiga ega. Bu mezonlar asosida korxona ichki faoliyatining qay darajada yangilikka ochiqqligi, jamoa salohiyati va texnologik bazasi aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, sport sanoatida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash kompleks yondashuvni talab qiladi. Baholash mezonlari iqtisodiy samaradorlik, texnologik yangilik, ijtimoiy foyda va foydalanuvchi tajribasi asosida tizimlashtirilsa, bu sport tarmog'ining rivojlanish sur'atini tezlashtiradi. Yuqorida bayon etilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sport sohasi innovatsiyalar uchun ochiq maydon bo'lib, har bir yangilikni aniq mezonlar orqali baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. М.А. Гурьева, & Д.В. Наймушина (2015). «Зеленая экономика» в России. Теория и практика общественного развития, (7), 58-59.
2. К.Г. Буневич, & Т.А. Горбачева, (2022). «Зеленые» тенденции в развитии мировой финансовой системы. Вестник Московского университета имени СЮ Витте. Серия 1: Экономика и управление, (1 (40)), 52-60.
3. D. Zhang , M. Mohsin, A.K. Rasheed, Y. Chang, F. Taghizadeh-Hesary (2021). Public spending and green economic growth in BRI region: mediating role of green finance. Energy Policy, 153, 112256.
4. Porter M. Raqobat ustunligi. – T.: Iqtisodiyot, 2020.
5. OECD Innovation in Sport Industry Report, 2022.
6. Jahon Banki – Sport for Development, 2021.